



UDK 379.8:910.4:371.134

Aybibi MATCHANOVA,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU dotsenti, PhD
Risolat GULIMMATOVA,
UrDU magistranti
E-mail: risolatgulimmatova0307@gmail.com

THE USE OF INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING PRACTICAL TRAINING IN THE SUBJECT OF TOURISM AND RECREATION GEOGRAPHY

Annotation

This article discusses the role of inductive and deductive methods in organizing practical exercises in the field of tourism and recreation geography, their didactic significance, and their functions in developing geographical knowledge in students. In this small study, observation, analysis, and comparison of pedagogical experience were used. The results show that inductive and deductive methods are used to achieve a deep understanding of practical tasks and form students' free thinking.

Keywords: tourism geography, recreation, inductive and deductive method, practical exercise, territorial analysis, pedagogical methods.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДУКТИВНОГО И ДЕДУКТИВНОГО МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО ПРЕДМЕТУ ГЕОГРАФИЯ ТУРИЗМА И РЕКРЕАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль индуктивного и дедуктивного методов в организации практических занятий по географии туризма и рекреации, их дидактическое значение и функции в развитии географических знаний студентов. В данном небольшом исследовании использовались наблюдение, анализ и сравнение педагогического опыта. Результаты показывают, что индуктивный и дедуктивный методы используются для достижения глубокого понимания практических заданий и формирования свободного мышления студентов.

Ключевые слова: география туризма, рекреация, индуктивный и дедуктивный методы, практические занятия, территориальный анализ, педагогические методы.

TURIZM VA REKREATSIYA GEOGRAFIYASI FANIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'QITISHDA INDUKTIV VA DEDUKTIK METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya geografiyasi fanida amaliy mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etishda induktiv va deduktik metodlarning o'rni va ularning didaktik ahamiyati hamda talabalarda geografik bilimlarni rivojlantirishdagi funksiyalar yoritiladi. Ushbu kichik tadqiqotda davomida kuzatuv, tahlil, pedagogik tajriba taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Natijalar induktiv va deduktiv metodlardan foydalanilib, amaliy topshiriqlarning chuqur o'zlashtirilishi va talabarni erkin fikrlashni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: turizm geografiyasi, rekreatsiya, induktiv va deduktiv metod, amaliy mashg'ulot, hududiy tahlil, pedagogik metodlar.

Kirish. Hozirgi kunda Turizm va rekreatsiya geografiyasi sohalarida talabalaridan hududiy jarayonlarni, turistik resurslar taqsimoti, rekreatsiya hududlarining funksional tuzilishini chuqur taxlil qilish talab etadi. Ushbu jarayon esa amaliy mashg'ulot darslarimizni samarali handa didaktik metodlardan foydalangan holda tashkil qilishimiz lozim. Induktiv va deduktiv metodlar geografik bilimlarni shakllantirishda bir – birini to'ldiruvchi, universal mantiqiy yondashuv bo'lib, amaliy mashg'ulot darslarda talabani tahliliy fikrlashi, dalillardan xulosa chiqarishi yoki qoidalardan kelib chiqib muammoli variyatlarni yechish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar. Geografiya ta'limi bo'yicha tadqiqotlarda induktiv yondashuvning faktlardan umumlantirish ko'nikmasini shakllantirishi, deduktiv metodning esa nazariy konsepsiyalarini amaliyotda qo'llashga yordam berishi ta'kidlanadi. Ammo hozirgi zamonaviy ta'limda turizm va rekreatsiya geografiyasi fani uchun maxsus ishlab chiqilgandidaktik metodlar yetarli emas. Ushbu kichik tadqiqot shunday masalalarni yechimini topishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi turizm va rekreatsiya geografiyasi fanining amaliy mashg'ulotlarida induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish samaradorligini aniqlash va bir qancha metodik tafsilyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda kuzatuv pedagogik tajriba, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

➤ Induktiv metodlardan foydalanganimizda amaliy mashg'ulot darslarimizda talabalarga aniq faktlar asosida xulosa chiqarish imkoni yaratiladi. Misol uchun, talabalarga ma'lum bir hududning turistik resurslari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilib, ular asosida umumiy xulosalar chiqariladi. Ushbu jarayonda talabalarda "kuzatuv-taxlil-xulosa" zanjiri shakllanadi.

➤ Deduktiv metodlardan foydalanganimizda esa dastlab talabalarga nazariy bilim berishimiz lozim. So'ngra talabalar ushbu nazariyani real hayotdagi muammoni yechimini topish topshirig'i beriladi. Bu esa talabalarda konseptual fikrlash va nazariyani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra induktiv metod talabalarining tahliliy fikrlashini oshirgan bo'lsa, deduktiv metod nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni kuchaytirgan. Har ikki metod bir birini to'ldiruvchi metodlar qo'llanganda o'quv jarayonining samaradorligi sezilarli oshgan. Turizm va rekreatsiya geografiyasi geografiyasi fanidao'qitish jarayonining o'ziga xosligi shundaki, unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Turistik hududlarni o'rganish, rekreatsion salohiyatni baholash, tabiiy-geografik omillarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlar bilan ishlash, xaritalar yaratish – bularning barchasi mantiqiy

fikrlashni va tizimli yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan induktiv va deduktiv metodlarning amaliy mashg'ulotlarda qo'llanishi o'quvchilar bilimini puxta shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1. Induktiv metodning tahlili.

Induktiv metod kichik kuzatishlardan umumiy xulosaga kelish tamoyiliga asoslanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

Talabalar avval mahalliy hududni, kichik obyektlarni yoki alohida turistik resurslarni kuzatish orqali o'zlarida turizmning umumiy qonuniyatlarini anglaydi. Amaliy mashg'ulotlarda turistik obyektlarning turli xil fotosuratlarini, xaritalari, statistik ma'lumotlar asosida erkin xulosa chiqarish qobiliyati oshadi. Mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va dalillarga asoslanish ko'nikmalari shakllanadi.

Induktiv metodlarni ayniqsa quyidagi mavzularda samarali natija ko'rsatadi:

- ✓ Hudud rekreatsion salohiyatini aniqlash
- ✓ Tabiat zonalari va turistik resurslarni taqqoslang
- ✓ Mahalliy turizm turlarini o'rganish
- ✓ Ekologik rekreatsiya imkoniyatlarini baholash

2. Deduktiv metodning tahlili

Deduktiv metod esa umumiy tamoyillardan, nazariy bilimlardan kelib chiqib, amaliy ya'ni hayotga tadbiiq etishni nazarda tutadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki: Talabalar nazariy qonuniyatlar- rekreatsiya talabi, turizm mintaqalanishi, hududiy tashkil qilish asosida real hayotda ham turistik hududlarni baholay oladilar. Talabalar bilimni strukturalashtiradi, ularga tizimlilik va mantiqiy yondashuv beradi. Umumiy geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlarni hududiy turizm rivojlanishiga tadbiiq etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Deduktiv yondashuv ayniqsa quyidagi mavzularga katta ahamiyatga ega:

- ✓ Turizm geografiasining nazariy modellarini real hayotda turistik hududlarga qo'llash;
- ✓ Turistik geografik zonalarni ilmiy jihatdan asoslab berish;
- ✓ Rekreatsiya hududlarini toifalash va tasniflash;
- ✓ Xalqaro turizm oqimlarini hududiy tahlil qilish;

Quyida induktiv va deduktiv metodlardan foydalanib "Hududning rekreatsion salohiyatini baholash" mavzusida tahlil qilamiz.

Tahlil	Induktiv metod. Faktidan -Xulosaga	Deduktiv metod. Nazariyadan -Amaliyotga
Amaliyotni olib borish jarayoni	Dastlab hudud bo'yicha aniq faktlar to'planadi; Aholi, transport, turistik obyektlar, landshaft, iqlim, suv resurslari	Ushbu metodda dastlab Rekreatsiya geografiasini bo'yicha nazariy ma'lumotlar olinadi: "Rekreatsion salohiyat darajasi", "Rekreatsion resurslar salohiyati" va boshqalar.
Ma'lumot manbalari	Statistik ma'lumotlar, xaritalar, mahalliy kuzatuv	O'quv adabiyotlari, nazariy ma'lumotlar, turli xil ilmiy maqolalar.
Tahlil jarayoni	Barcha resurslar alohida o'rganilib, umumiy xulosa chiqariladi. Masalan: Suv manbalari- iqlim; landshaft- rekreatsion imkoniyat	Nazariy ma'lumotlar asosida "Rekreatsion hudud" asosan ball bilan baholanadi
Talabalarda shakllanadigan ko'nikma	Mustaqil kuzatish, dalillarni solishtirib yakuniy xulosa chiqarish.	Nazariy bilimlarni amaliy hayotga tadbiiq qilish, tizimli fikrlashni rivojlantiradi.
Amaliy misol	Masalan, "Zomin hududi": Iqlimi yumshoq, mineral suvlar mavjud Davolash turizmi rivojlangan.	Teoretik modelga ko'ra: "Rekreatsion resurslar 5ta omilga bo'linadi" Zomin har bir mil bo'yicha ball bilan baholanadi
Tahlil natijasi	"Hududning rekreatsion salohiyati yuqori, chunki mavjud tabiiy resurslar dam olish uchun qulay".	"Hududning rekreatsion salohiyati 85% (yaxshi)- nazariy modelga to'liq mos"
Kamchiliklari	Bazan talaba faktlari noto'g'ri bo'lishi mumkin	Nazariya barcha hududlarga to'liq mos kelmasligi, ba'zi real omillarga modellar bilan umumlashmasligi mumkin.
Afzalliklari	Talaba erkin fikrlashni va kuzatishni o'rganadi.	Tizimli, tez va aniq baholash imkonini beradi.

Demak, yuqoridagi jadvalga ko'ra shuni aytishimiz mumkinki, Induktiv metodlar real faktlar asosida, deduktiv metodlar esa nazariy ma'lumotlar asosida hududning rekreatsion salohiyatini aniqlashga yordam beradi. Biz har ikkala metodlardan foydalanganimizda hududning imkoniyat darajasi aniq, asosli va kompleks baholanadi.

Xulosa. Tahlil natijalariga ko'ra shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Turizm va rekreatsiya geografiasini fanida amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda induktiv va deduktiv metodlar bir – birini to'ldiruvchi mantiqiy yondashuvlar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi dars jarayonini yanada sifatlilik darajasini oshiradi va talabalar bilimlarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlardi. Induktiv va deduktiv metodlar bir – birini to'ldiruvchi, talabalarni faol va mustaqil fikrlashga, tahlil va chuqur izlanishga undovchi samarali vositalar hisoblanadi. Demak, ushbu metodlar amaliy mashg'ulotlarda uyg'un holda qo'llash ta'lim jarayonini yanada jonlantiradi, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantiradi hamda talabalarni professional tayyorgarligini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov A. (2020). "Turizm va rekreatsiya geografiasini: nazariya va amaliyot." Toshkent: O'zbekiston davlat universiteti.
2. Karimova, D (2021). "Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariy asoslar va amaliy qo'llanma." Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
3. Muradov, S (2019). "Geografiya fanida interaktiv ta'lim metodlari." Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
4. Xodjayev, R. (2022) "Turizm va rekreatsiya geografiasini: o'qitish usullari va innovatsiyalar." Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
5. Nosirov, N. (2020). "O'qitishda innovatsion metodlar va ularning ta'siri". Nukus: Qoraqalpog'iston davlat universiteti.
6. Rasulova, M (2021). "Muammoli o'qitish metodlari: turizm va rekreatsiya geografiasini misolida". Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.
7. Ismoilov A. (2023). "Loyiha asosida o'qitish: nazariy va amaliy jihatlari." Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
8. Shodmonov E. (2022). "Geografiya fanida o'yin metodlari va simulatsiyalar". Andijon: Andijon davlat universiteti.